Xalqaro onlayn konferensiya o’tkazildi

2020-yil 26-avgust kuni Xorazm Ma’mun akademiyasi, Urganch davlat universiteti va AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda "Integrating English into Teaching STEM / STEAM" mavzusida xalqaro onlayn konferensiya o’tkazildi. Konferensiyani AQSh elchixonasining madaniyat ishlari bo’yicha mutaxassisi Joane Kramb, UrDU o’quv ishlar bo’yicha prorektor Sardor Xodjaniyazov va Xorazm Ma’mun akademiyasi Ikrom Abdullayevlar tabrik so’zi bilan ochib berdilar.

Konferensiyada O’zbekistonda “STEM va ingliz tilining ahamiyati va istiqbollari”, “Sinfda ijodiy fikrlashni tarbiyalash”, “Bloom taksonomiyasidan foydalangan holda STEM uchun tanqidiy fikrlash”, “ Avtomatlashtirilgan lug’at tayyorlash uchun vositalar” kabi ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.